

**SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDiy  
MARKAZI**

**MAKTABGACHA, BOSHLANG'ICH VA MAXSUS TA'LIM  
METODIKALARI KAFEDRASI**

**O'QISH DARSLIKLARIDA BERILGAN  
MATNLAR ORQALI O'QUVCHILAR MILLIY MA'NAVIYATINI  
SHAKLLANTIRISH**

*(umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari  
uchun uslubiy ko'rsatma)*

**Samarqand – 2020**

Rabbonayeva Dildora. O'qish darsliklarida berilgan matnlar orqali o'quvchilar milliy ma'naviyatini shakllantirish. Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun uslubiy ko'rsatma. – Samarqand VXTXQTMOHM, 2020-yil. 20 bet.

***Taqrizchilar:***

X.Rabbanaqulov – SamDU, Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası dotsenti

D.Jo'rayeva – Samarqand XTXQTMOHM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası o'qituvchisi

Ushbu ko'rsatma umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, boshlang'ich ta'limda o'qish darsliklarida berilgan matnlar orqali o'quvchilar milliy ma'naviyatini shakllantirish yuzasidan uslubiy tavsiyalar berilgan.

*Uslubiy ko'rsatma Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi Ilmiy kengashining 2020-yil 3-mart 3/4- sonli yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.*

## KIRISH

“Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, o‘sh-turishi, bir so‘z bilan aytganda dunyoqarashi bilan bog‘liq. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da‘vat ularning qalbida doimo aks sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan” - deya ta‘kidlagan edi Shavkat Mirziyoyev.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta‘lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta‘limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta‘limini o‘qish ta‘limisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

O‘quvchi matnni to‘g‘ri, tez, tushunib o‘qish, mazmunini o‘zlashtirish bilan ilk bor o‘qish darslarida yuzlashadi. O‘qish darslari orqali o‘quvchilarning Davlat ta‘lim standarti talablari bo‘yicha o‘zlashtirishlari ko‘zda tutilgan o‘quv-biluv ko‘nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo‘l ochiladi. Aynan o‘qish ta‘limida insonning, avvalo, o‘zligini, qolaversa olamni anglashga bo‘lgan intilishlariga turtki beriladi. Shu maqsadda “O‘qish kitobi” darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o‘rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqloq va milliy-ma‘naviy qadriyatlar, xalqlar do‘stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo‘yicha atroflicha tushunchalar berishga moljallangan badiiy, axloqiy-ta‘limiy, ilmiy-ommabop matnlar kiritiladi.

Ushbu uslubiy ko‘rsatmada matn tanlivi ustida ishlashda qo‘llash mumkin bo‘lgan bir necha metodlarni tavsiya etamiz.



## **O'QISH DARSLIKLARIDAGI MATNLAR ORQALI O'QUVCHILARDA HAYOTIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH**

Tilda har bir unsurning o'z vazifasi, ma'no doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog'lanish qonuniyatlari bor. Ana shu qonuniyatlardan mukammal boxabar bo'lgan, so'z sezgisi va mahorati yuksak yozuvchi betakror tasvir, kutilmagan, qiziqarli badiiy asar yaratadi. Shunda kitobxon asarning nafaqat g'oyasi, balki go'zal tilining asiriga aylanadi va xilma-xil badiiy-estetik ma'nolar bilan jilolangan asarlardan zavq oladi.

Badiiy asar matni ustida ishlashda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga kattalarning yordami zarur. Ta'lim va tarbiya jarayonida ustoz va murabbiylar o'quvchiga asarning badiiy-estetik ma'nolarini tushuntira olishlari juda muhimdir. O'qilgan asardan ma'naviy ozuqa ololgan o'quvchigina hayotning pastu-balandini anglab yetadi va kelajak hayotida bu bilim va tajribalari asqotadi.

“O'qish kitobi” darsliklaridagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug'atini boyitishga, og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirish va nutq madaniyatini o'stirishga ham qaratiladi.

O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim, ham tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqloq, Vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqloq, Vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularni uyg'otishdir.

O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarkib topdirish, badiiy asar mazmuni bilan tanishish va uni tushuna olish bo'yicha PIRLS xalqaro dasturi ham ishlab chiqilgan.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – Xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) – bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchilarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro dasturdir. Ushbu dastur har 5 yilda bir marta o'tkazishga mo'ljallangan.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabr kuni qabul qilgan *“Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”*gi 997-sonli qaroriga asosan 15 yoshli o'quvchilar PISA, 10 yoshli o'quvchilar

PIRLS, 4- va 8-sinf o'quvchilari TIMSS xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etishi va bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilandi

PIRLS tadqiqotlariga 4-sinf o'quvchilarining tanlanishi shu bilan e'tiborliki, aynan o'qishning to'rtinchi yilida o'quvchilar o'qishning yuqori darajasiga ega bo'lishi, ularning keyingi ta'limda bilimni egallash qobiliyatini shakllantirish va shu orqali hozirgi zamonga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi. Ko'pchilik davlatlarda bolalar 6 yoshdan maktabda o'qishni boshlashadi. Ammo Angliya va Yangi Zelandiyada ta'lim 5 yoshdan boshlanadi. Shuning uchun, loyihada o'quvchilar 4-sinfdan emas 5-sinfdan ishtirok etishadi. O'quvchilarning yoshi 10,5 yoshni tashkil etadi. Sharq mamlakatlarida bolalar 7 yoshdan o'qishni boshlagani uchun 10,7-10,9 yoshdagi o'quvchilar ishtirok etishadi.

PIRLS tadqiqotlari Xalqaro ta'lim institutlari assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan muvofiqlashtiriladi. PIRLS loyihasi boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish qobiliyatini rivojlantirish darajasini aniqlash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar orasida yetakchi hisoblanib kelinmoqda

O'qish savodxonligining asosi matnlar bilan to'liq ishlash uchun zarur bo'lgan o'qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o'quvchi tomonidan kerakli ma'lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma'lum qismi bo'yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash kabilardir.

Tadqiqotning har bir ishtirokchisiga matnlar va ular yuzasidan topshiriqlar berilgan daftar beriladi. Har bir matnga 12-15 ta savol-topshiriqlar ilova qilinadi.

Quyida matn uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash yuzasidan uslubiy tavsiyalar berish maqsadida o'qish darsligidan matnlar uchun topshiriqlar tayyorlash va bu topshiriqlarning maqsad va vazifalari, ular ustida ishlash texnologiyasini ko'rib chiqamiz.



### 3-SINF O'QISH DARSLIGIDAN "YO'lda" SHUKUR XOLMIRZAYEV



**O**ta, ona va o'g'il shaharga kelayotgan edilar. Onasi bilan otasi – otda, bola eshakda.

Dala yo'li. Kun isib ketdi. Bola chanqadi. Dadasidan suv so'radi.

- Chida, o'g'lim, chida. Shaharga tushaverishda buloq bor. O'shandan ichasan. Biz ham ichamiz. Ulovlarni ham sug'oramiz, - dedi otasi.

Bola chidab, eshakni haydayverdi.

Havo isigandan isidi. Tuproq yo'l ustida allanimalar jimir – jimir etardi. Tandir o'gzidan chiqqan hovurga o'xshaydi. Bolaning suv ichgisi kelib, battar qiynaldi. Tanglayi qotib, lablari bir-biriga yopishib qola boshladi. Yig'lab yubordi. Suv so'radi.

- Suv yo'q-ku, o'g'lim. Ko'rib turibsan o'zing. Demak, chidash kerak.

Chidamsiz kishi qiyinchilikka bardosh berolmaydi. "Men chidamliman!" deb o'yla. O'zingni chalg'it, atrofni tomosha qil, - deb maslahat berdi otasi.

Ular yo'lda davom etishdi. Shaharga tushaverishda toshlar ostidan oqib chiqayotgan buloq bo'yiga yetishdi. Ulovlardan tushishdi.

Hamma xursand edi. O'zlari ham buloqdan suv ichdilar. Ulovlarni ham sug'orishdi. Keyin asta yo'lga tushishdi.

- Qalay endi, o'g'lim! Chidasa bo'lar ekanmi? – dedi otasi.

- Ha, odam chidasa bo'lar ekan. O'zini chalg'itadimi, boshqa ish qiladimi, baribir chidasa bo'lar ekan.

Otasi chidamlilik, qiyinchiliklarga bardosh bera olish odamning eng yaxshi fazilatlaridan biri ekanligini tushuntirdi.

## TOPSHIRIQLAR



**1- topshiriq:** O'g'li nima uchun chanqab ketdi?

**2-topshiriq:** "Tushunchalar tahlili" metodi orqali so'zlarga izoh bering.

### "Tushunchalar tahlili" metodi.

Tushuncha	Mazmuni
Buloq	
Tanglay	
Ulov	
Hovur	
Chidamlilik	
Qiyinchilik	
Fazilat	



**3-topshiriq:** Mavzu yuzasidan quyidagi so'zlarga "Sinkveyn" tuzing.

***Yo'l, ota, o'g'il.***

**Namuna:**

1. Ona
2. G'amxor, mehribon
3. Tarbiyalaydi, erkalaydi, quchoqlaydi
4. Ona g'amxo'rlik bilan bolasini tarbiyalaydi.
5. Volida

**1. Yo'l**

2. \_\_\_\_\_

3. \_\_\_\_\_

4. \_\_\_\_\_

**1. Ota**

2. \_\_\_\_\_

3. \_\_\_\_\_

4. \_\_\_\_\_

5. \_\_\_\_\_

**1. O'g'il**

2. \_\_\_\_\_


3. \_\_\_\_\_

4. \_\_\_\_\_

5. \_\_\_\_\_

 **4-topshiriq:** O'zbekistonda qanday daryolar bor?

**5-topshiriq:** "Orolni asrang" mavzusida kichik hikoya tuzing.


 **6-topshiriq:** Ota- ona haqida maqollardan ayting.

**7-topshiriq:** O'g'li o'z-ozini qanday yengdi?

A) Otasidan qo'rqib

B) Sabr-bardoshi bilan


C) Suv topilmaganidan


 **8-topshiriq:** Ushbu hikoyaning asosiy g'oyasi nima?

A) Farzandiga har qanday sharoitda ham sabrli bo'lishni o'rgatish

B) Suvni asrab-avaylashga o'rgatish

C) Ota-onani hurmat qilishga o'rgatish


 **9-topshiriq:** Tasavvur qiling, so'z o'sha o'g'ilning o'rnidasiz. Qanday yo'l tutar edingiz? Fkringizni bayon eting.


 **10-topshiriq:** Asar qahramonlarining xarakterlarini yoriting.

Ota: \_\_\_\_\_


Ona: \_\_\_\_\_

O'g'il: \_\_\_\_\_

 **11-topshiriq:** Asar muallifi Shukur Xolmirzayev ijodi haqida nimalar bilasiz?

 **12-topshiriq:** Insonga xos bo'lgan ijobiy xislatlarni "Klaster" da tarmoqlang.





## 2-SINF O'QISH DARSLIGIDAN „CHUMCHUQ BOLA“

O'KTAM USMONOV

**B**oboxon chumchuq bolani rosa qiynadi: suvga solib suzdirdi, qanotlarini yoyib, hilpillatdi. Keyin oyog'iga ip bog'lab, ko'chaga olib chiqdi. Ko'chada qTal'atga duch keldi. Tal'at Boboxonni ko'rdi-yu, qovog'i solindi. Boboxon judayam o'jar bola edi. Tal'at shosha-pisha yonini kovlashtirdi: kissasida yarimta o'chirg'ich bilan kecha ochgan qizil qalami bor ekan.

**Tal'at:-** Boboxon, chumchuqni qayerdan olding?

**Boboxon:-** Bug'doyzordan, chigirtka tutayotganimda, do'ppim bilan urib yiqitdim.

**Tal'at:-** Alishmaysanmi?

**Boboxon:-** Alishaman, nimang bor? - dedi hovliqib.

**Tal'at:-** Mana rangli qalam, agar xo'p desang, mana bu ochirg'ichni ham beraman.

**Boboxon:-** Buni alishvolib nima qilasan? - dedi.

**Tal'at:-** Hozir bilasan nima qilishimni.

Tal'at chumchuq bolaning oyog'idagi ipni avaylab yechdi. Yuragi duk-duk urayotgan bechora qushchani bir-ikki siladi-da, keyin birdan osmonga qo'yib yubordi. «Bor, uchaver!» deb qo'yib yubordi. Boboxon goh qo'lidagi o'chirg'ich bilan qalamga, goh pat-pat qanot qoqib uchib ketayotgan chumchuqqa, goh istehzo bilan kulimsirab turgan Tal'at o'rtog'iga javdirab, nima qilishini bilmay, hang-mang bo'lib qoldi.




### TOPSHIRIQ




- 1-topshiriq. Boboxonga ta'rif bering.
- 2-topshiriq. Tal'atga ta'rif bering.
- 3-topshiriq. Tal'at bilan Boboxonni taqqoslang.


### Venn diagrammasi




- 4-topshiriq. Test.
  1. Boboxon chumchuq bolasini nima uchun qalam bilan o'chig'ichga alishdi?

- a) chunki u rasm chizishga juda qiziqadi
  - b) u qalamni yaxshi ko'radi
  - d) u o'chirg'ichni yaxshi ko'radi
2. Chumchuq qanday qush?
- a) kichkina b) katta d) vahshiy
3. Tal'at qushga nima deydi?
- a) bor, uchaver b) ket-ket d) sayrab ber
4. Boboxon chumchuqni nimaga alishdi?
- a) qalam b) o'chirg'ich d) o'chirg'ich, qalam
5. Chin do'st yurakdan so'zlar. Bu nima?
- a) tez aytish b) topishmoq b) maqol


 **5-topshiriq.** Tal'atni o'chirg'ich bilan qalamini Boboxonga berishga nima majbur qildi?


 **6-topshiriq.** Boboxon Tal'atning qilgan ishidan hang-mang bo'lib qoldi. Tog'rimi? Shu tobda uning xayolidan nimalar kechdi deb o'ylaysiz?

 **7-topshiriq.** O'zingiz yaxshi bilan 3 ta qush haqida quyidagicha izohli lug'at tuzingchi.

**Namuna: Musicha** – dumi uzun, tanasining orqa tomonidagi patlari bir xil kulrang, bo'ynining orqasida qora rangli yarim halqasi bor. Daraxtlar shoxiga in qurmasdan uylarning ayvoniga in quradi. Bir yilda bir necha marta bola ochadi. Qishda ham biz bilan birga qoladi, o'simliklar urug'i, don va non uvoqlari bilan oziqlanadi.

 **8-topshiriq.** Eng kerakli o'quv qurollarini „Klaster“ ga yozing.



 **9-topshiriq.** 7-8 - topshiriqni bajardingizmi? Nima uchun 7-8 - topshiriqlar qushlar va o'quv qurollari haqida?

 **10-topshiriq.** O'quv qurollarining narxini bilasizmi?

Portfel – \_\_\_\_\_

Daftar – \_\_\_\_\_

Ruchka – \_\_\_\_\_


Qalam – \_\_\_\_\_

O'chig'ich – \_\_\_\_\_

Rasm daftar – \_\_\_\_\_

Yelim – \_\_\_\_\_

**11-topshiriq.** Sizingcha hozirda qushlarga munosabat qanday?

 **12-topshiriq.** Oxirgi marta qachon qushlarga g'amxo'rlik qilgan edingiz?

**13-topshiriq.** O'ktam Usmonov haqida nimalar bilasiz?

**3-SINF O'QISH DARSLIGIDAN**  
**"INSON INSONGA O'RTOQ" SHE'RI**  
**HAMIDULLA YOQUBOV**

Turob ekdi ko'k piyoz,

O't bosibdi ayni yoz.

O'tni yulib bir o'zi,

Toldi barmog'i, ko'zi.

Chakkasiga qo'l tirab:


Nima qilsam? – der Turob.  
Birdan Savri, Sotvoldi  
Yordamga kelib qoldi.


Oh, dehqonning vaqti chog‘,  
Yeng shimarib uch o‘rtoq  
O‘tay boshlar polma - pol,  
Top - toza qilar darhol.

Suv, nurga to‘yib piyoz,  
Erkin o‘sar beqiyos.  
Ha, Turob emas yakka,  
Tengdoshlar shay ko‘makka.  
Inson insonga har choq  
Qadr don, ahil o‘rtoq.



## TOPSHIRIQLAR

 **1-topshiriq.** Hamidulla Yoqubovning ijodi haqida nimalar bilasiz?

 **2-topshiriq:** “Tushunchalar tahlili” metodi orqali so‘zlarni tahlil qiling.

Tushuncha	Mazmuni
O‘rtoq	
Nur	
Tengdosh	
Qadr don	
Ahil	
Chakkasi	
Yakka	

📝 **3-topshiriq** Turob qanday bola, ta'riflab bering.

📝 **4-topshiriq.** Do'stlik haqida 3 ta maqol ayting.

📝 **5 -topshiriq.** Satrlarini tahlil qiling.

*Suv, nurga to'yib piyoz,*

*Erkin o'sar beqiyos.*

📝 **6-topshiriq. Test.**

1. Do'st so'zini tashlama .... Maqolni davom ettiring.

A) pushaymon bo'lsan

B) tashlab boshing qashlama

D) tashlab afsus qilma


2. Mazmunga mos so'z toping. Do'stlik nima uchun kerak?

A) insonligingni his qilish uchun

B) yordam uchun

D) maslahat uchun

📝 **7-topshiriq.** "Nima uchun?" metodi. Birinchi chizma namuna uchun. Siz ikkinchi chizmani to'ldiring.



📝 **8-topshiriq.** Bugungi kunda quyidagilarning narxi qancha, bilasizmi?

Kartoshka- \_\_\_\_\_

Piyoz - \_\_\_\_\_

Olma - \_\_\_\_\_

Go'sht - \_\_\_\_\_

Pamidor - \_\_\_\_\_

Sholg'om - \_\_\_\_\_

Sabzi - \_\_\_\_\_

**9-topshiriq.** Turobning do'stlari qanday do'stlar ekan. Fikringizni bayon yozing.

**10-topshiriq.** Rasm asosida "Do'stlar" mavzusida hikoya tuzing.



**11-topshiriq.** Poliz ekinlari haqida topshmoqlardan yozing.

**12-topshiriq.** Sabzavotlarning foydali va zararli jihatlarini yozing.

1. Foydali jihatlarini:

2. Zararli jihatlarini:

**13-topshiriq.** Piyoz navlaridan qaysilarini bilasiz?

**14-topshiriq.** Savollarga javob bering.

1. Yoz fasli qaysi oylardan iborat?

2. Og'irlik o'lchov birligi nima?

3. Eng katta og'irlik o'lchov birligi nima?

4. Piyoz nimada o'lchanadi?

**15-topshiriq.** Sizning ham do'stingiz bormi? Agar bo'lsa ismlarini va ularning xarakterini yozing.

## **Xulosa**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining beshta muhim tashabbusi dasturining to'rtinchi tashabbusi: yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan. Bu dastur yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy, ijtimoiy faollikka, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to'g'ri yo'l topa olish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi.

Bugun ta'lim-tarbiya jarayoniga alohida maqsad qo'yilgan. Bu o'quvchilarga ijodiy jihatdan o'z-o'zlarini namayon qilishlari uchun imkoniyat yaratish va ularda ijobiy-shaxsiy, milliy-ma'naviy sifatlarning shakllanishiga ko'maklashishdan iborat. Shu boisdan ham, bugungi kunda o'quvchilarning faolligini oshirish, bilimlarini yaxshilash maqsadida ta'lim samaradorligini oshirishda matn tahlili ustida mustaqil, ijodiy ishlarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy ta'lim ravnaqini ta'lim-tarbiya amaliyotida samarali va tejamli, yangi shakl, vositalarni qo'llash, izlanish orqali yuqori natijalarga erishishni ko'zlovchi pedagogik texnologiyalar ta'minlaydi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. 2019-yilning 29-aprel..
3. Баранова В.Ю., Ковалева Г.С., к.п.н., Кузнецова М.И., к.п.н., Цукерман Г.А., д.псих.н., Нурминская Н.В. ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ международного исследования «Изучение качества чтения и понимания текста»Москва, 2007
4. Ishmuhamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.–T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004.
5. Matjonov S. va b. 4-sinf o'qish kitobi.O'qituvchi Toshkent-2017-yil
6. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili ohqitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi. 2010-yil
7. Umarova M.va b.3-sinf o'qish kitobi.O'qituvchi.Toshkent-2019-yil
8. G'affarova T. va b. 1-sinf o'qish kitobi. Sharq. Toshkent-2017-yil
9. G'affarova T. va b. 2-sinf o'qish kitobi. Sharq. Toshkent-2018-yil

### ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI

1. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi portali.
2. <http://www.uzedu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi portali.
3. <http://www.multimedia.uz> (<http://www.eduportal.uz>) - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi sayti.
4. <http://www.rtm.uz> – Respublika ta'lim markazi sayti
5. <http://www.dtm.uz> – Respublika test markazi sayti

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
O'qish darsliklaridagi matnlar orqali o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish.....	5
Yo'lda .....	7
Chumchuq bola.....	9
Inson insonga o'rtoq .....	12
Xulosa.....	16
Foydalanilgan adabiyotlar.....	17

**RABBONAYEVA DILDORA TOLIPOVNA**

**O'QISH DARSLIKLARIDA BERILGAN  
MATNLAR ORQALI O'QUVCHILAR MILLIY  
MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISH**

Texnik muharrir *Abdullayev F.*

Terishga berildi: 10.01.2021 y.

Bosishga ruxsat berildi: 13.01.2021 y

Ofset bosma qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84 <sup>1/16</sup>.

«Cambria» garniturasini. Ofset bosma usuli.

12,5 bosma taboq Adadi: 50nusxa. Buyurtma №60/20

Samarqand viloyati Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash  
va ularning malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi.

---

Samarqand shahar, Obidinov ko'chasi 7-uy.

